



**AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING INSON
HAYOTIDAGI AHAMIYATI**

Usmanova Dinora G'ulomjon qizi

Barchaga ma'lumki, bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Deyarli barcha sohalarda — ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish va hatto kundalik hayotimizda ham bu texnologiyalar faol qo'llanilmoqda.

Bugungi kunga kelib tirik jon borki, qo'lida albatta telefon ko'rasiz. Har bir xonadonda kompyuter yoki unga o'xshash texnika vositalari mavjud. Axborot texnologiyalari hayotimizga shu qadar chuqur kirib kelganki, ko'pchilik bunga o'zi sezmagani holda bog'lanib qolgan. Endi shunday savol tug'iladi: axborot texnologiyalarining inson hayotidagi o'rni qanday?

Zamonaviy texnologiyalar tufayli ko'plab yumushlar yengillashdi va tez bajariladigan bo'ldi. Masalan, onlayn do'konlardan kiyim-kechak buyurtma qilish, uyda o'tirgan holda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishni tashkil qilish imkoniyatlari yuzaga keldi. 21-asr — bu texnologiyalar asri. Bugungi kunda ko'plab insonlar internet orqali qiynalmasdan daromad topishmoqda. Turli onlayn tanlov va konkurslarda ishtirok etib, pul mukofotlariga ega bo'lishyapti. Misol uchun, blogerlar va ijtimoiy tarmoq faollari oddiy smartfon orqali daromad qilmoqdalar.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari bizni butun dunyo bilan bog'lab turadi. Biz chet eldagi yaqinlarimiz yoki do'stlarimiz bilan bir zumda video orqali muloqot qila olamiz. Hatto xonadan chiqmagan holda diplom olish imkoniyatiga ham egamiz. Ilgari bularning barchasi shunchaki ertakka o'xshardi, bugun esa bu — haqiqat.

Shuningdek, tibbiyotdagi texnologik yangiliklar inson umrini uzaytirishga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt orqali bemorlarga aniq tashxis qo'yish, aqlli soatlar yordamida yurak urishini kuzatish — bularning barchasi axborot texnologiyalarining hayot sifatini qanday yaxshilayotganidan dalolat beradi.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, texnologiya faqat foyda emas — u javobgarlik hamdir. Agar undan noto'g'ri foydalansak, u vaqtimizni, e'tiborimizni, eng muhimi — sog'lig'imizni yomonlashtirishi, energiyamizni olib qo'yishi mumkin. Shu sababli, axborot texnologiyalaridan oqilona, maqsadli va me'yorida foydalanish har bir insonning dolzarb vazifasidir.